

HAFIZOV Najmiddin Abdurashidovich
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch
 doktoranti*

ABU HAFS NASAFIY YASHAGAN DAVRDA ILMIY MUHIT

НАУЧНАЯ СРЕДА ВО ВРЕМЕНА АБУ ХАФСА НАСАФИ

THE SCIENTIFIC ENVIRONMENT AT THE TIME OF ABU HAFS NASAFI

Annotatsiya: Maqolada islom ilmlarida yuqori cho'qqilarni egallab, o'zi yashagan davr va bugungi kun uchun ham katta ilmiy meros qoldirib ketgan buyuk alloma Abu Hafs Nasafiyning yashagan asrida Nasaf vohasining ilmiy muhiti va bu muhitning olimga qanchalik ta'sir etgani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nasaf, fiqh, faqih, muhaddis, Samarqand, Naxshab, islom ilmlari.

Аннотация: В статье рассказывается о научной среде оазиса Насаф в эпоху великого ученого Абу Хафса Насафи, достигшего высочайших высот в исламских науках и оставившего великое научное наследие для своего времени и для сегодняшнего дня, и насколько эта среда повлиял на ученого.

Ключевые слова: Насаф, фикх, факих, мухаддисы, Самарканд, Накшаб, исламские науки.

Abstract: The article tells about the scientific environment of the Nasaf oasis in the era of the great scientist Abu Hafs Nasafi, who reached the highest heights in Islamic sciences and left a great scientific heritage for his time and for today, and how this environment influenced the scientist.

Keywords: Nasaf, fiqh, faqih, muhaddith, Samarkand, Nakhshab, Islamic sciences.

KIRISH

Islom dini qaror topa boshlagandan buyon uning o'zagi bo'lgan Qur'oni karim va hadisi shariflar chuqur o'rganila boshlagan. Islom dini Arabiston diyorlarida vujudga keldi va ko'plab diyordarga keng tarqaldi. Bu dinning tarqalishida uni chuqur o'rganib, boshqalarga o'rgatgan

Movarounnahr ulamolarining hissalarini katta bo'ldi. Islom dini bu o'lkaga kirib kelganidan so'ng islom ilmlari rivojlandi. Shu yo'sinda bu joylardan dunyo tan olgan olimlar yetishib chiqa boshladilar. Albatta, bunda dastlab bu o'lkaga kirib kelgan sahoba va tobeinlarning xizmatlari katta bo'ldi. Movarounnahrning ba'zi shaharlari to'lig'icha islom ilmlari markaziga aylangan. Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlar bunga misol bo'la oladi. Biz ushbu maqolada so'z yuritayotgan Nasaf ham shular jumlasidandir. Nasaf vohasi tarixdan havosi toza, salqin joylarga boy bo'lgan. Har asrda va hukumatlar almashinuvida o'zining hamma tomonlama mavqeini saqlab qolgan. Ayniqsa ilmiy-ma'naviy, diniy-ijtimoiy muhiti Samarqand va Buxoro shaharlaridan keyingi o'rinda turgan. Juda ko'plab qomusiy olimlarni yetishtirib chiqargan. Olim Abu Hafs Nasafiy ham shular jumlasidandir.

ASOSIY QISM

Abu Hafs Nasafiy o'rta asrlarda ilmning har jabhasida faoliyat olib borgan ensiklopedik olim hisoblanadi. Olimning tug'ilgan yili haqida aniq bir malumot bo'lmay, tadqiqotlarda "Abu Hafs Nasafiy hijriy 461-yoki 462-yilda tavallud topgan bo'lsa kerak" tarzida keltirilgan bo'lib, bu sana millodiy 1068-1070- yillarga to'g'ri keladi. Ammo ba'zi adabiyotlarda bu raqam 1068 tarzida bo'lishi taxminiy ahamiyatga egadir.

U kishining to'liq ismi manbalarda Najm addin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad ibn Ali ibn Luqmon an-Nasafiy summa as-Samarqandiy al-Hofiz al-Faqih az-Zohid al-Hanafiy tarzida keltiriladi. Lekin ba'zan Nasafning qadimiy nomi Naxshabga nisbat berilib, muallifning ism-nisbasi an-Nasafiy o'rniga an-Naxshabiy shaklida ham uchraydi. Nasafda tug'ilib, dasrlabki ilmlarni shu yerda olib so'ng umrining asosiy qismini Samarqandda o'tkazgani uchun unga "an-Nasafiy summa as-Samarqandiy" ("nasaflik", so'ngra "samarqandlik") ismi-nisbalari ishlatilgan. Umuman olganda olim ilm olamida Abu Hafs Nasafiy nomi bilan keng tanilgan.

Islom tarixiga oid o'rta asr manbalarida Abu Hafs Nasafiy haqida 20 dan ortiq joylarda malumotlarni uchratishimiz mumkin. Olimning

hayoti haqida dastlabki ma'lumotlarni undan keyingi davrda yashagan olim Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyl al-Marvaziy (v. 1167 y.) asarida uchramiz. Jumladan, Abu Sa'd Sam'oniyl o'zining "Kitob al-ansob" asarida Abu Hafs Nasafiyning nomini 27 yerda zikr etgan. Undan keyingi mualliflar esa asosan Abu Sa'd Sam'oniyl ma'lumotlarini o'z asarlarida takrorlaydilar va ba'zan unga yangi tafsilotlarni qo'shimcha qiladilar. Bu kabi ma'lumotlar Abu Hafs Nasafiy kitoblaridan olingan bo'lib, ko'p hollarda olimning ilmiy olami, qiziqishlari haqida ma'lumotlar beradi. Abu Sa'd Sam'oniyl shofiiyl mazhabiga mansub bo'lgan. Uning hanafiiyl olim Abu Hafs Nasafiyning fozil ulamolardan bo'lganligini ta'kidlashi esa etiborga molikdir. Shu ham aytish kerakki, uning hadis ilmi sohasidagi ba'zi fikrlarini tanqid ostiga oladi. Lekin Abu Sa'd Sam'oniyl Abu Hafs Nasafiyning tiriklik paytlarida uchramagan bo'lsada, uning barcha asarlariga yozma ravishda ijoza olganligini faxr bilan aytib o'tadi. Abu Sa'd Sam'oniyl o'zining Abu Hafs Nasafiy haqidagi fikrlarini uni shunday tariflash bilan yakunlaydi: "U hadisni yaxshi ko'radiganlardan edi, ammo ularni "tushunish" baxtiga muyassar bo'lmadi" (fa-lam yurzaq fahmahu).

Abu Hafs Nasafiy dastlabki ilmlarni o'z ona shahri Nasafga oladi. Alloma o'zining hadis ilmida eng birinchi ustozlari sifatida Abul Abbos al-Mustag'firiylning nevarasi hofiz Abu Rajo Qutayba ibn Muhammad al-Usmoniyl an-Nasafiy (v. 1081 y.) takidlaydi. Abu Rajo Nasafdagi "Bob maqsura" nomli joydagi jomiiyl masjidida hadis ilmidan dars berar edi. Yosh ilm tolibi Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiy esa ustozining yonlariga borib, umrida birinchi marotaba hadislarni xatga tushira boshlagandi.

Abu Hafsning ilk ustozlaridan yana biri – adib, faqih Abul Hasan Ali ibn Muhammad an-Nasafiy al-Kasbaviyl (v. 1092 y.) edi. Abu Hafs Nasafiy Nasafda u kishidan adab ilmidan tahsil olar edi. Abu Hafs Nasafiy o'zining "Kitob al-qand" va uning qisqartma shakli "Muntaxab" asarining mavjud qismida 26 ta nasaflik ustozlari tarjimai hollarini keltirib o'tgan. Ammo ulardan 18 tasi Samarqandda bo'lgan yoki ushbu shaharda Abu Hafsga hadis aytgan. Demak, Abu Hafs Nasafiy va uning ustozlari nafaqat Nasaf balki Samarqand

muhiti bilan ham aloqalari chambarchas bog'liq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Abu Hafs Nasafiy boshlang'ich tahsilini Nasafda olib, bilim olishni Samarqandga borib davom ettirgan. U kishining shayxlari orasidan quyidagi mashhur muhaddislarni alohida zikr etish lozim: Abu Ali al-Hasan ibn Abdulmalik an-Nasafiy, al-imom al-fodil Muhammad ibn Ahmad al-Moymarg'iy an-Nasafiy (XI asr), al-Mustag'firiylndan hadis eshitgan al-qodi al-imom al-xatib Abu Muhammad Ismoil ibn Muhammad an-Nuhiyl an-Nasafiy (v. 1089 y.). Ular orasida an-Nuhiyl sulolasi vakillari ko'pchilikni tashkil qilgan.

Olim o'z yoshligini Nasafda o'tkazib, XII asrning boshlaridan Samarqandga bordi va umrining asosiy, ijodiiyl qismini Samarqandda o'tkazdi. Birinchi marta, ya'ni 1113-14-yili haj amalini ado qilish maqsadini qasd qilib Bag'dod orqali Makkaga safar uyishtirdi. Lekin uning safari uzoq davom etmay, keyingi yili ona yurtiga qaytdi keladi. "Kitob al-qand" asarida olim safar chog'ida Bag'dodda Abul Abbos Muhammad ibn Yunus al-Kudaymiyl va Saraxsda Abul Fadl Muhammad ibn Ahmad as-Soig'iy kabi ulamolardan hadis eshitganligi haqidagi habarlarni beradi.

Abu Hafs Nasafiy Samarqandga kelib o'z tahsilini davom ettirdi. Shu yerdagi "Dorul juzjoniya" nomli ilm o'chog'i olimning ilm sohalarida yuqori cho'qqilarni egallashida katta ahamiiyl kasb etgan.

Shu ham aytib o'tish kerakki, Abu Hafs Nasafiyga nafaqat Samarqand balki, Buxoro maktabining ham ta'siri kuchli bo'lgan. Olim Buxoroga borib, u yerda ash-shayx al-imom ar-raiyl Sa'id ibn Muhammad Xorazmiyl kabi mudarris shayxlardan fiqh ilmiga oid ilmlarni tahsil olgan. Turli islom ilm sohalarida tajriba orttirgandan so'ng Abu Hafs Nasafiy Samarqandga qaytadi va ilm toliblariga shu shahar masjid va madrasalarida dars berishni yo'lga qo'yadi.

Abu Hafs Nasafiy o'zidan keyib judda katta ilmiyl xazira qoldirdi. Manbalarda uning qoldirgan asarlarining umumiiyl soni 100 dan ortiq deb keltiriladi. Olim hanafiiyl mazhabi doirasida fiqh ilmida sermahsul ijod qilgan. Tarixiiyl manbalarda uning bu sohada yozib qoldirgan sakkizta asarining nomi keltiriladi. Ulardan "Kitob ad-do'ir fi-l-fiqh", "Mashori' ash-shori'", "al-Haso'il fi-l-furu'" yoki

“al-Haso‘il fi-l-maso‘il”ning nomlarigina bizga qadar ma‘lum xolos. Bizgacha yetib kelganlari esa – “al-Manzuma an-nasafiya fi-l-xilofiyot”, “Tilbat at-talaba”, “Sharh al-usul li-l-Karxiy”, “Fatovo shayx al-islom as-Sug‘diy” asarlaridir.

Aqida ilmida esa Imom Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) an‘analarini davom ettirdi. Jumladan, Abu Ali al-Hasan ibn Abdulmalik al-Moturidiy, sahoba Abu Ayyub Xolid al-Ansoriy avlodi bo‘lmish Abul Hasan Ali ibn al-Hasan al-Moturidiy kabi olimlar Abu Hafs Nasafiynig shu ilmda shayxlari edilar. O‘zining bobokalon ustozlari Imom al-Moturidiy ta‘limotini ixcham, qisqa shaklga keltirib, Moturidiya ta‘limoti keng yoyilishiga katta hissa qo‘shgan. U yozgan “‘Aqo‘id an-Nasafi” asari islom dunyosida keng o‘rganilib, unga ko‘plab sharh va hoshiyalar yozilgan. Olim kalom ilmiga oid birgina shu asarni yozgan bo‘lsada, uning aqida ilmi olimi sifatida shuhrat qozonishiga sabab – mazkur asar juda qisqa holda islom aqidasi nazarini asoslab berganligidir.

Abu Hafs Nasafiylar tafsir ilmining ham bilimdoni bo‘lgan. U yozgan “at-Taysir fi (‘ilm) at-tafsir” (4 jildli Qur‘onga yozilgan tafsir) asari ham ana shundan dalolat qiladi.

Olimning asarlarida ko‘plab uchraydigan she‘rlar Abu Hafs Nasafiynig nazm sohasida ham yuksak qobiliyatga ega bo‘lganidan darak beradi. Olim o‘zining “Kitob al-qand” asarida keltirgan hadislarining aksariyatini o‘z tili bilan she‘riy uslubda ham sharhlab o‘tadi.

Manbalarining xabar berishicha, Abu Hafs Nasafiylar turli ilm sohalarida jami yuzga yaqin asarlar yozib qoldirgan. Uning ba‘zi asarlari shu darajada shuhrat qozonib, ularga ko‘plab sharhlar yozilgan. Ulardan shu kungacha yetib kelganlarining soni o‘ndan oshadi. Bu asarlar kelajakda Abu Hafs Nasafiynig serqirra ijodining har qaysi yo‘nalishlarini mufassal o‘rganishga yetarli asos bo‘lib xizmat qila oladi.

Demak xulosa qilishimiz mumkin bo‘ladiki, ushbu olim yoshligining dastlabki qismini Nasaf diyorida quruq o‘tkazmagan balki, ilm olish yo‘lining ham avvalgi vaqtlarini ushbu shaharda o‘tkazgandir.

Bu shaharda u kishining ustozlarining ko‘p bo‘lganligi va ular ilm sohalarining har jabhalarini qamrab olganliklaridan bilib olishimiz mumkin

bo‘ladiki, Abu Hafs Nasafiylar yashagan davrning o‘zida ham bu shaharda islom ilmlari va boshqa fanlar yaxshigina ko‘rinish kasb qilgan. Bu hol albatta Imom Nasafiylar ham o‘z tasirini o‘tkazgan. Shu muhit imomning keyinchalik Samarqand shahriga borib ilmning cho‘qqilariga chiqishlariga sabab bo‘lgan deyilsa, xato bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda Nasaf shahrining o‘sha davrdagi ilm muhiti haqida so‘z yuritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

VIII asrning boshida Movarounnahrning boshqa shaharlari kabi Naxshap ham fath etildi (710-yil). Shahar esa endi Nasaf deb atala boshladi. Shaharda ilk masjid qurildi. Istaxri, Ibn Xavqal va Muqaddasiylar kabi musulmon jo‘g‘rofiyunlarining bergan ma‘lumotiga ko‘ra, Naxshap qalin devor bilan o‘ralgan va to‘rt darvozaga ega bo‘lgan. IX–XIII asrlarda Naxshab (Nasaf) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topdi. X asrda Nasafda o‘sha davr musulmon olamida ilmiy kongress-“majlisi tadrish” o‘tkazilgan. Savdo yo‘llarining xavfsizligi, tarixda birinchi chek tizimi yo‘lga qo‘yilishi, islomdan oldingi savdogarlardan olinadigan soliqlarning bekor qilinishi butun xalifalikda bo‘lgani kabi Nasafda ham savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishiga olib keldi.

IX asrning boshida Nasaf Somoniylar davlati tarkibiga kirdi. XI asrda qoraxoniylar qo‘liga o‘tdi. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Nasaf Xorazm sultonligi tarkibiga kirar edi. IX–XIII asrlarda Naxshab (Nasaf) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topdi. X asrda Nasafda o‘sha davr musulmon olamida ilmiy kongress — “majlisi tadrish” o‘tkazilgan. O‘rta asrlarda Nasaf orqali Eron va Hindistonni Rossiya va Yevropa davlatlari bilan bog‘lagan muhim karvon yo‘llari o‘tgan, savdo-hunarmandchilik rivojlangan.

Nasaf shahri Abu Hafs yashagan davrda ilm-ma‘rifat jihatidan Movarounnahrda eng yirik ilmiy-madaniy markazlar – Samarqand va Buxorodan keyingi uchinchi o‘rinda egallagan edi. O‘rganilayotgan asrlarda Nasafdan ko‘plab olim va muhaddislar yetishib chiqqanlar. Misol qilib keltirishimiz mumkinki, “Kitob al-qand” handa “Kitob al-ansob” kabi manbalar olingan ma‘lumotlarga qaraganda, VIII–XII asrlar davomida Movarounnahrda 3000 dan ortiq ko‘zga ko‘ringan muhaddislar yashab, faoliyat yuritganlar.

Ulardan 1000 dan ortig'i Samarqandda, 600 dan ortig'i Buxoroda yashagan bo'lsalar, shundan 400 dan ortig'ining hayot va faoliyatlari Nasaf shahri bilan aloqador ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qolgan 1000 muhaddisidan 70 dan ortig'i Shoshda, 60 dan ortig'i Farg'onada, yana shunchasi Keshda, 50 dan ortig'i Termizda, 40 dan ortig'i Xorazmda, shu bilan birga Ustrushana, Dabusiya, Kushoniya va boshqa mahalliy mintaqalarda ijod qilganlar. Ko'rsatilgan sonlar yuqorida aytib o'tilgan Nasaf shahrining Movarounnahr miqyosidagi ilmiy-madaniy ahamiyatini to'la tasdiqlaydi.

Nasafda ilm taraqqiyotining bu darajada yuksak bo'lishining asosiy sabalaridan biri bu shaharning ko'hna tarixga ega bo'lganligidir. Unga ta'rif berganda XII asrda yashagan marvlik jahongashta olim, Abu Hafs Nasafiyning kichik zamondoshi Abu Sa'd Sam'oniyni aytgan so'zlari keltirib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi: "Nasaf Movarounnahr shaharlaridan biri bo'lib, uni Naxshab deb ham ataydilar. Men u yerda ikki oycha yashab, ulamolaridan hadis eshitdim. Nasafdan har bir ilm sohasida ko'plab olimlar chiqqan bo'lib, ularning son-sanog'i yo'q. Abu Tammom Hubayb ibn Avs o'zining xalifa al-Mu'tasimga (833-842) yozgan qasidasida Nasaf haqida shunday deydi:

Rum sendan o'z yerto'lasida turib dahshatga tushadi,

Turklar esa Nasaf ortidan turib sendan qo'rqadi".

Haqiqatan, Nasaf IX asrda Abbosiylar (749-1258) xalifaligining turklar bilan chegaradosh hududlarida joylashgan edi. Abu Hafs Nasafiy davrida Nasaf yirik tijorat, hunarmandchilik markazi bo'lib, unda ilm-fan barq urib rivojlangan. Uning mamlakat poytaxti Samarqand bilan aloqalari juda mustahkam bo'lgan. Bu shahar XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilib, uning yaqinida XIV asrdan boshlab Qarshi shahri paydo bo'ldi.

Nasafda boshqa ilmlar bilan birga hadis ilmi ham erta davrlardan boshlab rivojlandi. Buyuk muhaddis Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) o'zining ilmiy safarlari davomida Nasaf shahrida ham bo'lgan va u yerdagi hadis ilmining rivojiga o'zining katta hissasini

qo'shgan. Zero, Nasafda hadis ilmi taraqqiyotining ilk davri Imom Buxoriyning hayoti yillariga to'g'ri keladi. Imom Buxoriy Nasafdaligi chog'ida undan Abu Zayd Tufayl ibn Zayd (v. 892 y.), Abu Ishoq Ibrohim ibn Ma'qil an-Nasafiy as-Sanjoniy (IX asr) kabi bir qancha ko'zga ko'ringan muhaddislar dars oldilar, uning o'zi ham Nasaf ulamolaridan ancha ta'sirlandi. Buyuk muhaddis Nasaf ulamolari tomonidan juda ehtirom bilan kutib olindi. Ular Imom Buxoriyni o'z uylarida mehmon bo'lishini, o'zlari uning xizmatida turishlarini sharaf deb bilar edilar.

Nasaf muhaddislarining o'ziga xos tomoni shunda ediki, ular zuhdga (zohidlikka) ko'proq e'tiborni qaratar edilar. Zuhd deganda ular tarkidunyochilikni emas, balki muloyimlik, xushmuomalalik, ozga sabr qilib, asosiy e'tiborni ilmga sarflashni nazarda tutar edilar. Bunda ularga Xuroson ulamolari o'rnak bo'ldilar. Nasafda hadis ilmining ilk davri namoyandalaridan biri Abu Abdurrahmon Muoz ibn Ya'qub an-Nasafiy al-Kosaniy (IX asr) balxlik muhaddis Hotim ibn Ulvon al-Asamm az-Zohiddan (IX asr) zohidlikka oid rivoyatlarni keltiradi. Al-Kosaniy 834-yili Nasafda jome masjidini qurdirtdi. Bu masjid, Abu Hafs Nasafiyning guvohlik berishicha, XII asrda ham mavjud bo'lgan. Shu bilan birga bir rabot qurdirib, yoniga quduq qazitdi va tahorat uchun joy tayyorlatdi. Bu inshootlar joylashgan ko'cha – "Abu Abdurrahmon az-Zohid uyi", XII asrda esa "Sikkat az-zuhhod" ("Zohidlar ko'chasi") deb atalardi.

Nasaf tarixida mashhur muhaddislar sulolalari katta o'rin tutadilar. Ulardan biri Abu Zayd Tufayl ibn Zayd an-Nasafiy (v. 892 y.) – Nasafdagi hadis ilmi taraqqiyotiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. O'sha davrda hadislarni otadan-bolaga, avloddan-avlodga uzatib rivoyat qilish an'anaga aylangan bo'lib, Nasafda ana shunday muhaddis oilalari juda ko'p edi. Bunda hadis ulamolari boshlang'ich bilimni ustoz sifatida o'z otalari yoki bobolaridan olar edilar. Abu Zayd Nasafdagi ana shunday muhaddis oilalaridan birining bobokaloni edi.

Abu Zaydning an'alarini davom ettirgan uning ikki o'g'li – Abu Solih Xalaf ibn Tufayl an-Nasafiy (v. 908 y.) va Abu Homid Zayd ibn Tufayl an-Nasafiy (v. 957 y.), nevarasi va shogirdi – o'g'li

Abu Solihning farzandi bo'lmish mashhur Abu Ya'lo Abd al-Mu'min ibn Xalaf an-Nasafiyar (v. 957 y.) ham Nasafda hadis ilmini rivojlantirishda katta xizmat qilib, o'z ota-bobolarining ishini davom ettirdilar.

Nasaf VIII-XIII asrlar davomida Movarounnahrda hadis ilmi markazlaridan biri bo'lib qoldi. Nasaf shahri butun viloyat ilm toliblari uchun markaziy maktab bo'lib xizmat qildi. Bu yerga Pazda, Kasbi, Kosan, Varsin, Yag'na, Navqat-Quraysh, Ofuron, Zodak, Qalosiylar, Muda, Sanjon, Fijkat, Moymarg' kabi shaharcha va qishloqlardan olimlar ilm olish uchun kelar edilar. Bu shaharda faoliyat olib borgan muhaddislar haqida ikki maxsus asar yaratildi. Ulardan birinchisi – "Mufoxarot ahl Kish va Nasaf" ("Kesh va Nasaf ahli tortishuvlari") Abul Horis Asad ibn Hamduya al-Varsiniy (v. 927 y.) tomonidan yaratildi. Afsus, bu asarning nomigina bizga ma'lum. Nasaflik muhaddislar haqidagi ikkinchi asar ikki jildli "Ta'rix Nasaf"dir. Uni Abul Abbas Ja'far ibn Muhammad al-Mustag'firi an-Nasafiy (v. 1041 y.) ta'lif etdi. Bu asar bizgacha yetib kelmagan bo'lsada, u Abu Hafs Nasafiyning "Kitob al-qand" uchun asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qildi. Mazkur ikki asardagi ma'lumotlar "Kitob al-qand"da to'liq icha saqlanib qoldi.

Abu Hafs Nasafiy ilk tahsilini ona yurti Nasafda oldi. Olim o'zining hadis bo'yicha eng birinchi ustoz sifatida Abul Abbas al-Mustag'firiyaning nevarasi hofiz Abu Rajo Qutayba ibn Muhammad al-Usmoniy an-Nasafiy (v. 1081 y.) zikr etadi. Abu Rajo Nasafdagi "Bob maqsura" nomli joydagi juma masjidida hadis imlo qilganida, yosh ilm tolibi Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiy umrida birinchi marotaba hadislarini xatga tushira boshladi.

Abu Hafsning ilk ustozlaridan yana biri – adib, faqih Abul Hasan Ali ibn Muhammad an-Nasafiy al-Kasbaviy (v. 1092 y.) edi. U Abu Hafs Nasafiyga Nasafda adab ilmidan tahsil berdi. "Kitob al-qand" va uning qisqartma shakli "Muntaxab" asarining mavjud qismida Abu Hafs Nasafiyning 26 ta nasaflik ustozlari tarjimai holi keltirilgan. Ammo ulardan 18 tasi Samarqandga kirgan yoki ushbu shaharda Abu Hafsga hadis aytgan. Demak, Abu Hafs Nasafiy va uning ustozlarining Samarqand muhiti bilan aloqalari chambarchas bog'liq bo'lgan.

Olim boshlang'ich tahsilini Nasafda olib, bilim olishni Samarqandda davom ettirgan. Uning ustozlari orasidan quyidagi taniqli muhaddislarni alohida zikr etish lozim: Abu Ali al-Hasan ibn Abdulmalik an-Nasafiy, al-imom al-fodil Muhammad ibn Ahmad al-Moymarg'iy an-Nasafiy (XI asr), al-Mustag'firiyan hadis eshitgan al-qodi al-imom al-xatib Abu Muhammad Ismoil ibn Muhammad an-Nuhay an-Nasafiy (v. 1089 y.). Ular orasida an-Nuhay sulolasi vakillari ko'pchilikni tashkil qiladi. Abu Hafs Nasafiy o'z yoshligini Nasafda o'tkazib, XII asrning boshlaridan Samarqandga yo'l oldi va umrining asosiy, ijodiy qismini Samarqandda o'tkazdi.

Abu Hafs Nasafiy hijriy 537-yil 12-yoki 13-jumodo al-ulo/milodiy 1142-yil 3-yoki 4-oktyabr kuni Samarqand shahrida vafot etadi va shu yerdagi Chokardiza qabristoniga, Imom Moturidiy yoniga dafn etiladi.

Abu Hafs Nasafiy o'zidan keyin "al-Majd" laqab nomi bilan mashhur 1113-14-yili tavallud topgan Ahmad ismli o'g'lini qoldirdi. Abu Sa'd Sam'oniylar uning o'g'li Abul Lays Ahmad ibn Umarni xushsurat, do'stlari bilan bordi-keldini uzmaydigan, faqih, fozil, vo'iz, komil kishilardan edi, deb tasvirlaydi. Abu Sa'd Sam'oniylar 1154-55-yili Samarqandga borganida Abul Lays bilan uchrashib, ilmiy muloqotda bo'lgan. Uning aytishicha, ular bir-birlarini tez-tez ziyorat qilishar, Majd undan ba'zi kitoblarni olib turar edi. Majd Nasafiy 1156-57-yili haj safariga otlandi. U 1157-58-yili Bag'doddan o'z vataniga qaytayotgan vaqtda, yo'lda Bistom shahridan o'tganlarida, ismoiliylardan bo'lgan bir guruh ahl al-qilo'lar (qal'alar ahllari) guruhi karvon yo'lini to'sdilar. Ular karvondagi Hijozdan kelayotgan 70 dan ortiq kishilar va juda ko'p ulamolarni qirib tashladilar. Ular orasida Majd Nasafiy ham bor edi. U Bistom nohiyasidagi bir qishloqda dafn etildi.

Xulosa shunday bo'lishi mumkinki, Abu Hafs Najmiddin Nasafiy o'z davrining taniqli olimi bo'lib, turli ilm sohalarida faoliyat yuritdi. U qoldirgan boy ma'naviy meros asrlar osha O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyatini ko'tarishga xizmat qildi. Ayni kunda ham bu xazina o'z qadr-qimmatini yo'qotmadi, balki xalqlar, xususan, yoshlar orasida ilm-ma'rifat nurlarini sochib, tarix zarvaraqlarini yoritmoqda.

XULOSA

Abu Hafs Nasafiy o'zining deyarli chorakam bir asrlik umri davomida islom ilmlarining turli sohalarida ijod qilib, chuqur iz qoldirdi. Abu Hafs Nasafiy qomusiy olimlardan edi.

Umrining yoshlik davrini ya'ni 30 yoshigacha o'z ona yurti Nasafda ilm olib, ilmning har sohasidan habardor bo'lib, ustozlarini rozi qilib so'ngra Samarqand va boshqa shaharlarga ilm talabida yo'l olgan Abu Hafs Nasafiyning bu ilm talab qilish usuli avlodlarga yaxshi o'rnak va usul bo'lib xizmat qiladi.

Diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, olim umrining aynan ilmga chanqoq bo'ladigan davrida Nasafda ilm olganligini tushinamiz. Bundan ko'rinadiki, alloma yashagan davrda Nasaf din ilmlarining barcha sohalarida yetarlicha ustozlariga ega bo'lgan shahar edi. Zero, Abu Tammom Hubayb ibn Avs turklar Nasaf ortida ekanliklarini zikr etib ketganligi ham bejiz emas.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Ҳафс 'Умар ибн Муҳаммад Ан-Насафий. ал-Қанд фи зикр 'уламо' Самарқанд / Назар Муҳаммад ал-Форйобий таҳрири остида. – Саудия Арабистони: Мактабат ал-Кавсар, 1991 (бундан кейин: Қанд. 1991). – Б. 7; Абу Ҳафс 'Умар ибн Муҳаммад ан-Насафий. Китоб ал-қанд фи зикр 'уламо' Самарқанд / Юсуф ал-Ҳоди таҳрири остида. – Техрон: Ойина-йи мирос, 1999 (бундан кейин: Қанд. 1999). – Б. 15; Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Маҳмуд ибн ан-Нажжор ал-Бағдодий. Зайл Та'рих Бағдод / Мустафо 'Абд ал-Қодир 'Ато' таҳрири остида. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-'илмийа, 1997. – Т. 20 (бундан кейин: Ибн ан-Нажжор). – Б. 98-100.
2. Муҳаммад ибн Аҳмад аз-Заҳабий. Сийар а'лом ан-нубало'. – Байрут: Му'ассасат ар-рисола, 1992. 8-нашр. – Т. XX. – Б. 126.
3. Wensinck A.J. al-Nasafi. III. Extract from the Encyclopaedia of Islam CD-ROM Edition v.1.0.
4. Уватов У. Самарқанд уламолари // Донолардан сабоқлар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 64.
5. Vikipediya, ochiq ensiklopediya. // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qarshi>
6. Vikipediya. // <https://ok.ru/group/57667621421116/topic/65920048971836>
7. Абу Таммом Ҳубайб ибн Авс ат-То'ий (788-845) – аббосий халифаларни, хусусан, ал-Му'тасимни мактаб қасидалар ёзган араб шоири: ал-Мунжид фи-л-а'лом. 5-нашр. – Байрут. – 1987. – Б. 17.
8. Бартольд В.В. Сочинения. – Т. III: Работы по исторической географии. – М. – 1965. – Б. 450.
9. Раҳимжонов Д. Имом Бухорий ва Насаф ҳадис мактаби // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – 2000. – № 2. – Б. 91-93.
10. Rahimjonov D. Abu Hafs Nasafiy. Monografiya. – Toshkent, 2010. – 40 b.